

**BADIIY ASAR TAHLILIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASIDAN
FOYDALANISH USULLARI**

Karimova Arujan Kurbonali qizi

Nizomiy nomidagi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

aruzankarimova458@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada badiiy asarlarni yuqori sinf o'quvchilarida badiiy asar tahlili va o'quvchilarning badiiy asarni qabul qilishi jarayoni hamda uni tahlil etishdagi psixologik jihatlari yoritiladi. 5-11-sinflar uchun mo'ljallangan adabiyot darsliklaridagi badiiy matnlar o'quvchilarning o'qish ko'nikma va malakalarini rivojlantiribgina qolmay, ularning yetuk shaxs sifatida kamol topishiga ham katta xizmat qiladi. Badiiy asarlar orqali ularning estetik o'ylash qobiliyati hamda atrof-muhit haqidagi taasavvurlari va ilmiy dunyoqarashining dastlabki asoslari shakllanadi. Shu bois badiiy matnlar ta'lim jarayonida samarali vosita sifatida baholanadi va o'quvchilarda fan hamda badiiylikka bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.*

KALIT SO'ZLAR: *badiiy asar, badiiy matn tahlili, badiiylilik, ijodiy fikrlash, monolog, dialog.*

KIRISH

Barchamizga ayonki, O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham keng ko'lamlil va tizimli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, kadrlar tayyorlashning milliy modeli ishlab chiqilib, u bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilib kelinmoqda. Ta'lim sohasidagi bunday tub o'zgarishlar yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ta'lim va tarbiya jarayoniga berilayotgan e'tibor Yangi O'zbekiston kelajagini barpo etishda muhim omil bo'lib, yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bois bilimli, ma'naviy yetuk va vatanparvar yoshlar mamlakatimiz taraqqiyotining ishonchli poydevori hisoblanadi. Bu borada Sharq mutaffakkirlarining "Eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik esa – bilimsizlik" degan hikmatli so'zlari bugun ham o'z dolzarbligini hech yo'qotgan emas. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, har bir inson o'z ustida doimiy izlanishda bo'lishi, bilim va tarbiyani uzluksiz ravishda rivojlantirib borishi zamon talabi hisoblanadi.[1]

Ko'rib turganimizdek, bilim, ta'lim va tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yagona tizimni tashkil etadi. Inson bu qadriyatlarni hayotining eng ilk bosqichidan – ona qornidan boshlab, oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamda hayotiy tajribalar jarayonida bosqichma-bosqich egallab boradi. Mazkur jarayon yosh avlodda Vatanga muhabbat,

oqilona fikrlash, ota-onaga hurmat, keksalarni e'zozlash va jamiyat bilan uyg'un hayot kechirish kabi muhim fazilatlarining shakllanishiga zamin yaratadi. Maktab ta'limi bosqichiga qadam qo'ygan har bir bola uchun ta'lim va tarbiyaning uyg'un holda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'qituvchi, ota-ona va oilaning o'rni beqiyos bo'lib, ular bolaga dastlabki bilim va tarbiyani berish bilan birga, uni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs etib voyaga yetkazishda muhim mas'uliyatni zimmasiga oladi. Ana shu hamkorlik asosida sog'lom fikrlaydigan, ma'naviy jihatdan yetuk va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'la oladigan yoshlar tarbiyalanadi. Bugungi kunda yosh avlodning zamonaviy bilimlarni egallashi, yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Buni, xususan, boshlang'ich sinflar uchun ishlab chiqilgan yangi o'quv dasturlari va darsliklar mazmunida yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu jarayonda kitob va mutolaaning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning ichki dunyosini boyitishda, tafakkurini rivojlantirishda va ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob tengsiz manba hisoblanadi. Kitob nafaqat bilim manbai, balki shaxsni o'zini anglash, taqqoslash, xulosa chiqarish va hayotiy qarashlarni shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Mustaqillik yillarida boshlang'ich ta'limda o'qish faniga alohida e'tibor qaratilib, badiiy asarlarni tahlil qilishga doir metodik yondashuvlar yanada takomillashtirildi. O'quvchilarning matn ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida turli topshiriq turlari va zamonaviy texnik vositalardan foydalanish keng yo'lga qo'yildi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan badiiy asarlarda hayot voqeligi obrazlar orqali aks ettirilib, markaziy o'rinda inson, uning tabiat va jamiyat bilan munosabati tasvirlanadi.

METODOLOGIYA

Badiiy asarni obrazlar orqali idrok etish, undagi obyektiv mazmun va muallifning subyektiv munosabatini anglash metodika nuqtayi nazaridan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. O'qituvchining badiiy asarni o'qitish va tahlil qilish jarayonidagi yo'naltiruvchi faoliyati o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytiradi, ularni voqea-hodisalarga ongli va mustaqil baho berishga o'rgatadi. Natijada o'quvchilarning dunyoqarashi shakllanib, boyib boradi. Badiiy asarlarni o'rganish jarayoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali hamkorlik asosida olib boriladi, chunki o'qituvchi bolaning matnini to'g'ri anglashiga va mazmunini chuqur talqin qilishiga ko'maklashadi. Shu asosda badiiy asarlar muayyan metodik tamoyillarasosida tahlil qilinadi. Asar mazmunini tahlil qilish hamda to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish malakalarini shakllantirish o'zaro uzviy bog'liq holda, bir butun jarayon sifatida amalga oshiriladi.

Asarning g'oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlar tizimi, sujet rivoji, kompozitsiyasi va tasviriy vositalari orqali ochib berish o'quvchilarning shaxs sifatida har tomonlama kamol topishiga, shuningdek, ularning bog'lanishli nutqining rivojlanishiga xizmat qiladi.

1. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish badiiy asar mazmunini ongli idrok etishning muhim omili bo'lib, uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

2.Sinfda o'qish mashg'ulotlari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi hamda atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sanaladi.

3.Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida uning hissiy-ta'sirchan jihatlarini ham inobatga olish muhimdir. Chunki o'quvchi matnni nafaqat o'qiydi, balki muallif tasvirlagan voqea-hodisalar bilan birga hayajonlanadi, qahramonlar kechinmalarini his etadi. Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarda ijodiy tafakkur faollashib, estetik did shakllanadi.

4.O'qituvchi ta'lim jarayonida badiiy asarning mazmunini o'quvchi ongiga yetkazishda turli o'xshatishlar, obrazli ifodalar va tasviriy vositalardan samarali foydalanadi. Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda ona tiliga bo'lgan muhabbat kuchayadi, ongli o'qish ko'nikmalari rivojlanadi, asar g'oyalarini chuqur anglash uchun zamin yaratiladi hamda o'quvchilar nutqi boyiydi.[2]

Badiiy asarlarda muayyan tarixiy davrga oid voqealar aks ettirilganligi sababli, ularni tahlil qilishda tarixiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga tarixiy nuqtayi nazardan yondashgandagina matn mazmunini to'g'ri anglaydi, qahramonlarning xatti-harakatlarini tushunadi va dalillarni haqqoniy baholash imkoniga ega bo'ladi. Shu bois o'qituvchi umumiy o'rta ta'lim bosqichida badiiy asarni o'rganishda, unda aks etgan davr haqida zarur izoh va ma'lumotlarni berib borishi lozim. Har bir badiiy asarni tahlil qilish o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Badiiy asar tahlilida qahramonlar nutqi monolog va dialog shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Monolog – asar qahramonining o'ziga, suhbatdoshiga yoki ba'zan kitobxon va tomoshabinlarga qaratib aytgan nutqidir. Dialog esa badiiy asarda personajlar o'rtasida kechadigan suhbat, bahs va munozaralarni ifodalaydi. Endi esa 6-sinf adabiyot darsligida berilgan G'afur G'ulomning “Shum bola” hikoyasidagi quyidagi dialogga e'tiborimizni qarataylik.

Shu payt boyning qosh-qovog'iga qarab, mening ham ichim bir hapriqib ketdi... “Mendan nima ketdi, bir shart qo'yib qo'ya qolay, bir kun boshimga ish tushib qolsa, shu sabab bilan qutulib ketarman”, degan o'y bilan:

– Boy ota, – dedim, – endi savdomiz pishdi. Shariatga ko'ra mol sotayotganda uning barcha kamchiliklarini aytib sotsa, halol bo'lar ekan. Menda ham bir kamchilik bor, shuni avvaldan aytib qo'yganim yaxshi.

– Xo'sh, qanday kamchiliking bor? Sil kasalimisan, tutqanoqmisan?

– Yo'q, kamchiligim bu emas. Kamchiligim shuki, yoshligimdan odat bo'lib qolgan: ba'zan o'zim bilmagan holda yolg'on gapirib qo'yaman. Shunda meni so'roq qilmasangiz bo'ldi. Xizmat haqqi esa, mayli, siz aytgandek bo'lsin.

– Voy, chaqqon ekansan, ayyor ko'rinasan-a, mayli, mayli. Lekin ko'p yolg'on gapirma.[3]

TAHLIL VA NATIJALAR

Turli janrdagi har xil badiiy asarlarning qurilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilar ongiga ta'siri ham turlicha bo'ladi. Ya'ni har bir janr o'quvchilarni turli xil

yondashishga chorlaydi. Hikoya - kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoyadagi qahramonlar xatti-harakatlari haqida bahslar yuritiladi. O'qituvchi bolaga ularning eng go'zal xislatlarini qalblariga singdirishlari va o'zlariga kerak bo'lgan xulosalarni shakllantirishlariga yordam beradi. Hikoya orqali o'quvchilarning nutqi boyitiladi, o'z mulohazalarini to'liq ravishda aytishlariga imkoniyat yaratiladi. Shu bilan ularning lug'at boyliklari ham kengaytiriladi. Har bir personaj hayotidagi voqealar rollar asosida o'quvchilarga yetkazib borilsa, bu o'quvchida ijodiy yondashish ko'nikmasini hosil qiladi.[4] Mazkur parcha badiiy asarga xos hayotiylik va obrazlilik bilan ajralib turadi. Matnda voqealar birinchi muallif tomonidan hikoya qilinib, qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va muhitga bo'lgan munosabati yaqqol tasvirlangan. "Boyning qosh-qovog'iga qarab, mening ham ichim bir hapriqib ketdi" jumlasini orqali qahramonning ichki xavotiri va ikkilanishi badiiy ifoda vositalari yordamida ochib berilgan. Asarning asosiy g'oyasi inson xarakteridagi ayyorlik, manfaatparastlik va shu bilan birga hayotiy ehtiyojlar ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy holatlarni ko'rsatishdan iborat. Shum bola boy bilan savdo jarayonida o'zini himoyalash uchun "o'zim bilmay yolg'on gapirib qo'yaman" degan shartni qo'yadi. Bu holat badiiy asarda yumor va kinoya unsurlari orqali berilib, o'quvchini chuqur mulohazaga chorlaydi. Matnda dialoglar muhim o'rin tutadi. Boy va Shum bola o'rtasidagi suhbat orqali ularning xarakteri ochiladi: boyning shubhali va sinchkovligi, hikoyachining esa chaqqonligi va hozirjavobligi namoyon bo'ladi. "Sil kasalimisan, tutqanoqmisan?" kabi savollar boyning shaxsiyati va davr ruhini ifodalab beradi. Til jihatidan olib qaraganda, matn sodda, jonli va xalqona bo'lib, badiiy ta'sirchanlikni oshiradi. Shariatga ishora qilinishi esa voqealarning ma'lum ijtimoiy-madaniy muhitda kechayotganini ko'rsatadi. Bu orqali o'quvchi asar zamini va davr sharoitini his eta oladi. Umuman, yuqori sinflarda badiiy asarlarni tahlil qilish va idrok etishdan maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muayyan bilimlarni berish bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga, ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

Badiiy asarning muhim turlaridan biri sanalgan ertak janri bolalarni yaxshilikka undash, ezgulik g'oyalarini singdirish hamda qahramonlar obrazi orqali kuchli, botir, jasur va dovyurak bo'lishga ruhlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi ertaklarni o'qitish jarayonida o'quvchilarga axloqiy va ma'naviy tarbiya berib, bu fazilatlarni ularning ongida bosqichma-bosqich shakllantirib boradi. "Ertak" atamasi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ham uchrab, biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini anglatishi haqida qarashlar mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ertak o'qishga bo'lgan qiziqish ayniqsa yuqori bo'ladi. Chunki ular bolalik chog'idan boshlab bobo-buvilari hamda yoshi katta aka-opalaridan ertaklar tinglab, so'z boyliklarini boyitib boradilar. Natijada bolalar ushbu ertaklar orqali hayotiy xulosalar chiqarishni va o'zlari uchun zarur bo'lgan mulohazalarni shakllantirishni o'rganadilar.[5]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buni biz faqatgina badiiy asarlar tahlili asosida ko'rib chiqdik. O'quvchi yoshlar olayotgan ta'lim-tarbiyada ham kelajakda komil inson bo'lish, har bir jarayon bilan bog'liq ma'naviy ozuqalarni olish, bolada kelajakka intilish, orzu va havas, mehnatga chanqoqlik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak hislar namoyon bo'lishi bilan ularning ongi va tafakkuri yuksalib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". T. 56 bet, 2017.
2. D.G'ofurova. Boshlang'ich ta'lim jarayonida badiiy asar tahlilida pedagogic texnologiyasidan foydalanish "International journal of recently scientific researcher's theory" T. 38-bet, 2024.
3. Абдувалитовю Е және тағы басқалар. Әдебиет (Жалпы орта білім беретін мектептің 6-сыныбына арналған). Ташкент, «O'zbekiston», 2022. – 217 б
- 4.SH. Siddiqova. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarda folklor elementlarining qo'llanilishi "Xalq ogzaki ijodiyoti milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida xalqaro ilmiy konferensiya".B-127,2015.
5. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Toshkent 2017. 2-qism.